



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari" elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***ANALYSIS OF FOLK VERSIONS OF THE EPIC “YUSUF AND ZULAIKHA”****Babadjanova Nazokat Davronbekovna**

Doctor of Philosophy in Philological Sciences,
(PhD) Senior Lecturer of the Department of Uzbek Language and Literature,
Tashkent State Law University

Abstract. The article provides brief information on the history of the formation of the epic “Yusuf and Zulaikha”, its spread among the Persian and Turkic peoples, its transition to written literature, and a brief summary of the work is introduced. And finally, 3 Uzbek folk variants of the saga were analyzed by mutual comparison, the characteristics of the oral style of the saga were proven with examples, and relevant conclusions were drawn.

Keywords: epic, bakhshi, khalfa, plot, variant, style, misra, genre, verse, murabba, ghazal, mukhammas, mustazad, turoq.

“YUSUF VA ZULAYHO” DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI**Babadjanova Nazokat Davronbekovna,**

Filologiya fanlari falsafa doktori,
(PhD) Toshkent davlat yuridik universiteti,
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi
Email: nazokat9000@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada “Yusuf va Zulayho” dostonining shakllanish tarixi, fors va turkiy xalqlar orasida tarqalishi, yozma adabiyotga o'tishi bo'yicha qisqacha ma'lumotlar berilib, asarning qisqa mazmuni tanishtirilgan. Va nihoyat, dostonning 3 ta o'zbekcha xalq variantlari o'zaro qiyoslash orqali tahlil qilinib, dostonning og'zaki uslubga xos xususiyatlari misollar bilan dalillangan va tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: doston, baxshi, xalfa, syujet, variant, uslub, misra, janr, bayt, murabba, g'azal, muxammas, mustazad, turoq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N47>

Kirish. Qiziqarli syujeti bilan keng jamoatchilik orasida katta shuhrat qozongan mashhur dostonlardan biri “Yusuf va Zulayho” asari bo'lib, Qur'oni Karimda “Yusuf” surasi bilan keltirilgan syujet ildizi juda qadimiydir. Atoqli folklorshunos olim X.G. yozganidek, Korogli bu asardagi “Yusuf” biografiyasini “Avesto”dagi Siyovush obrazi bilan bog'lagani ham beziz emas. [1; 336-c.] Syujet dastlab turli rivoyat va afsonalar shaklida turli an'analar orqali tarqalgan bo'lib, keyinchalik arablar yozma adabiyotiga ko'chib o'tgan va Abulmuayyon Balxiy, Baxtiyoriy kabi adiblar ijodida o'z aksini topgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. 1233-yilda yashagan shoir Ali Turkiy XI-asrda yashagan A.Ansoiy ijodiga tayanib, o'g'uz shevasida “Qissasi Yusuf” dostonini yaratgan. XIV asrda Xorazmda yashagan Burhonuddin Rabg'uziyning “Qissasi Rabg'uziy” asarida ham Yusuf haqidagi hikoyat nasriy shaklda berilgan. [2; 240-b.] Yusuf syujeti turkiy adabiyot vakillaridan Sh. Hamza (XIII asr), H.Hamdi (XV asr), Ozarbayjon shoiri K.Dorrir (XIV asr) va bir qancha

shoirlar e'tiborini tortgan. Bu mavzuda tadqiqotlar olib borgan turkman olimi Gelde Nazarov va o'zbek olimasi Hilola Safarovlar tomonidan ishlab chiqilgan jadvallarda ko'rsatilganidek, "Yusuf va Zulayho" dostoni syujeti asosida 17 tilda 130 dan ortiq asarlar yozilgan. Ulardan 50 tasi fors, 30 tasi turkiy, 7 tasi o'zbek, 6 tasi arab, 6 tasi boshqa tillarda yaratilgan, hatto nemis va latviyalik ijodkorlar ham ushbu syujet asosida go'zal asarlar yaratishgan. [3; 120-b.] O'zbek folklorida Yusuf va Zulayho haqidagi an'anaviy syujetning epik talqiniga doir dastlabki ilmiy mulohazalardan biri mashhur olimlar V.M.Jirmunskiy va X.T.Zarifovlarga tegishlidir. Ular o'zlarining "O'zbek xalq qahramonlik eposi" kitobida Injil dostonlarining o'ziga xos tabiat, jumladan, X asrdan boshlab og'zaki va yozma adabiyotda keng qo'llanib kelinayotgan Misr ruhoniysining xotini go'zal Yusuf haqidagi Yusuf va Zulayho dostonining xalq varianti haqida fikr yuritganlar. [4; 233-240-b.]

Muhokama. Turkiy xalqlar folklorida Yusuf va Zulayho haqida Yusuf nomlari bilan bog'liq o'nlab rivoyat, afsona, xalq ertaklari, tush (talqin)lari keng tarqalganligi, yozma adabiyotda Yusuf va Zulayho tasviri ishq timsoli sifatida kuylanganligini ko'rsatadi. [5; 17-23-b.] Ayniqsa, turkman shoiri Andalibning "Yusuf va Zulayho" dostonining badiiy tili folklor asarlari tiliga juda yaqinligi bilan shu nomdagi boshqa asarlardan ajralib turadi. Yozuvchi boshqa mualliflar kabi masnaviy usulidan emas, xalq dostonlariga xos nasr va nazm qismlarini qorishiq qo'llash orqali o'z asarini yaratgan. [6; 44-47-b.] O'zbek adabiyotida ilk marotaba Durbek ushbu syujet asosida asar yozgan bo'lib, qo'lyozmada dostonning yozilish tarixi aniq qayd etilgan.

"Zod" erdi tarixi taki "he" yu "dol",

Muddati hizhratdin o'tub mohu sol [7; 216-b.]

Agar bayt tuzilishidagi "zod"(800), "he"(18) va "dol"(4) harflaridan tashkil topgan raqamlarni qo'shsak, asar 812-hijriy yilda yozilganligini ko'rsatadi. Durbekning dostoni hatto rus tilida ham nashr etilgan va bugungi kunda ko'plab tadqiqotlarning asosiy manbasi sifatida xizmat qilib kelmoqda [8]. XVIII asrda Xorazmda yashagan turkman shoiri Nurmuhammad Andalib ilk marotaba "Yusuf va Zulayho" dostonini xalq dostonlari uslubiga xos qilib, nasriy va nazm yo'li bilan yozgan. [9; 351-b.]. Turkman olimi B.A.Qariyevning ma'lumotlariga ko'ra, "Yusuf va Zulayho" dostonining Andalib ijodiga aloqador bo'lмаган, xalq variantiga yaqin bo'lgan qo'lyozmalari ham mavjud. [10; 47-b.] Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida asarning 4 ta, Adabiyot muzeyida 1 ta, Samarqandda 2 ta qo'lyozma nusxasi mavjud. [11; 155-b.]

O'zbek xalqi orasida "Yusuf va Zulayho" dostoni faqatgina baxshilarning og'zaki repertuaridagina saqlanib qolgan bo'lib, qissaxon xalfalar tomonidan kitob matni asosida maxsus yig'inlarda o'qib eshittirilgan. Shu kungacha Xorazm viloyatida asarning uchta varianti nashr etilgan. [12; 216-b.] Uchala variantni ham o'zaro taqqoslab tahlil qilganimizda ular o'rta sidagi bog'liqlik juda ko'pligi yaqqol namoyon bo'ldi. Kichkinagini tadqiqotimizda dostonning xalq variantlarini tahlil qilishdan oldin asrning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqsak, doston syujetining asosiy tarkibi va uning qisqacha mazmuni quyidagilardan iborat:

- Dostonning yozilish sababi va voqeа joyi ta'rifi.** Yusufning Kanon shahrida Yoqub payg'ambar oilasida tug'ilishi, kelajakni bashorat etuvchi tush ko'rishi va tushini otasiga aytishi, akalarining bu voqeadan xabar topib xiyonat yo'liga tushishi;
- Akalari tomonidan Yusufga fitna uyushtirilishi.** Yusuf akalari tomonidan aldov bilan dashtga olib kelinishi va quduqqa tashlanishi, akalarining Yusuf ko'ylagini echki qoniga

- bulg'ab otasini bo'ri yeb ketganiga ishontirishga harakat qilishlari, Yoqubning bo'rilar bilan suhbat;
3. **Savdo karvonidan Yusufning Misrga olib kelinishi.** Karvon tomonidan quduqqa tashlangan Yusufning qutqarilishi va Misrdagi qul bozorida 20 dirhamga sotilishi, G'arb hukmdorining qizi Zulayho tushida Yusufni ko'rib unga oshiq bo'lishi, tushidagi insonni izlab Misrga borishi-yu, adashib boshqa insonga turmushga chiqishi, oradan vaqtlar o'tib Yusufni qul bozorida ko'rib qolishi va Misr Azizi xonadoniga qul qilib sotib olib kelinishi;
 4. **Zulayhoning Yusufe'tiborini tortishga harakat qilishi.** Zulayhoning Yusufga muhabbat izhor qilishi, ammo bu sevgi Yusuf tomonidan rad qilgach alamzada Zulayhoning tuhmati sabab Yusufning quduqqa tashlanishi;
 5. **Yusufning Misr hukmdori nonvoyi va soqiysi bilan tanishuvi.** Yusufning zindonda nonvoy va soqiy bilan tanishuvi va ularning tushlari ta'bir qilinishi, ayni shu paytda Misr hukmdorining ham tush ko'rishi va hech kim tomonidan tushning to'g'ri talqini aytilmagach, nonvoy tomonidan Yusufning eslanishi;
 6. **Yusuf tomonidan Misr hukmdorining tushi ta'bir qilinishi.** Misr hukmdorining tushi Yusuf tomonidan to'g'ri ta'bir qilinishi, natijada Yusuf oqlanib zindondan ozod qilinishi va hukmdorining davlat boshqaruvini Yusufga topshirib taxtni vasiyat qilishi;
 7. **Yusufning Misr taxtini egallagan davri.** Yusuf Misr taxtini egallab donolik bilan harakat qilishi oqibatida xalqni tabiiy ofatdan qutqarishi, bu vaqtida Zulayhoning beva qolishi va Yusuf bilan uchinchi uchrashuvi lavhalarida Yusufning saxovat ko'rsatib, Zulayho yoshligini tiklashi;
 8. **Asarning so'nggi lavhalari.** Yusuf va Zulayhoning 40 kecha-kunduz to'ylari nishonlanishi, orzu-istiklar amalga oshib 2 ta o'g'il ko'rishlari;
 9. **Kanon shahrida ocharchilik boshlanishi.** Yusufning akalarining Misrga don izlab kelishi, ukasi Shamunni garovga olib qolib, akalariga don berib uylariga jo'natishi;
 10. **Misrda ikkinchi marotaba aka-ukalar uchrashuvi.** Ya'qub so'zlariga ko'ra, ibn Yaminning Yusuf oldiga kelishi, aka-ukalar yig'ilganda Yusuf o'zini oshkor etishi va akalariga Misr savdogariga sotilganligi to'g'risidagi tilxatni ko'rsatishi, gapiruvchi idish orqali aka-ukalar hiylalari fosh qilinishi va akalarning o'z ayblarini tan olib Yusufdan kechirim so'rashlari;
 11. **Yusufning otasi Ya'qub bilan uchrashuvi.** Yusuf cho'rilikdan tug'ilgan ukasi Bashirni topib otasi yoniga jo'natishi, Bashirning onasi bilan uchrashuvi, Yusuf kiyimlarini ko'ziga surtgan Ya'qubning ko'zlariga nur kirishi, va ota-o'g'ilning uchrashuvi, o'zaro yarashuvlar ba baxtli hayot yakuni bilan asar tugallanadi.

Uchta variantni ham solishtiranimizda, yig'ma variantda voqealar harakati rivojlanib, syujet ko'lami tobora kengayib ketganligiga guvoh bo'lamiz. Fikrimiz isboti sifatida asarning final qismiga yangi epizod kiritilganligini aytishimiz mumkin. Yangi syujet 16 baytdan tashkil topgan she'riy parchadan iborat bo'lib, unda Yusuf va Zulayhoning o'limi oldidan xayrlashuv sahnasi aks ettirilgan.

"Yusuf va Zulayho" dostonining O.Mengliboyevga tegishli varianti hajman qisqa bo'lib, 626 ta misrani o'z ichiga olgan. Asar tarkibida 3 ta g'azal va 2 ta muxammas ham o'rinni olgan bo'lib, asosiy qismi murabbalardan tashkil topgan. O.Mengliboyev variantiga qaraganda N. Musayevaga tegishli variantning hajmi ancha salmoqli bo'lib, 794 misrani o'z ichiga oladi. Ular orasida 4 g'azal va ikkita muxammas bor. Qolgan misralar murabba janriga mansub.

Variantning to'plangan, yig'ma nashri esa ichki va tashqi tuzilishiga ko'ra juda ham boy va mukammal bo'lib, monumental xususiyatga egaligi bilan boshqa variantlardan ajralib turadi. Asar tuzilishida 1 074 ta misradan foydalanilgan bo'lib, yetakchi janrlardan bir murabba hisoblanadi, ayni vaqtida asar tarkibida 3 ta muxammas, 5 ta g'azal va 1 ta mustazod mavjud.

Oshiqnomadagi yig'ma versiyani yaratishda o'ndan ortiq qo'lyozmalar ishtirok etgan bo'lib, uchala variantni ham tahlil qilganda bir-biriga o'xshash she'rlar ko'pligiga guvoh bo'lamic. Biroq e'tiborimizni tortadigan yana bir jihatni ham borki, asar variantlarida mutlaqo keskin farqlanuvchi, bir-biriga o'xshamaydigan, baytlar ham mavjud. Quyidagi taqqoslash fikrimizni yana bir marotaba isbotlaydi:

N.Musayeva varianti:

Tushlarimda sevib, boshim siylagan,

Bedorlikda hijronida qiynagan,

Yuragimga sevgi dardi joylagan.

Meni sevgan yigit shu yigit edi. ("Oshiqnoma" 5-kitob, 155-bet)

O.Mengliboyev varianti:

Tushlarimda sevib, sochim siylagan,

Hijronida bedorlikda qiynagan,

Yuragimga sevgi dardi joylagan,

Meni sevgan yigit shu yigit edi. (O.Mengliboyev, "Yusuf va Zulayho", 16-bet)

Yig'ma variant:

Tushlarimda kulib yuzimga boqqan,

Bedorlikda hijron o'tida yoqqan,

Yuragimga sevgi dardini tiqqan,

Meni sevgan yigit shu yigit edi. ("Oshiqnoma" 6-kitob, 40-bet)

N.Musayeva va O.Mengliboyev versiyalarini tahlil qilganimizda turoqlar tuzilishida anchagina kamchiliklar mavjudligini, baytlar mazmuni va tuzilishi jihatdan ma'lum darajada bir-biridan farqlanmasligiga guvoh bo'ldik. Ammo, dostonning yangi versiyasida turoqlanish va tuzilish jihatdan mukammal bo'lishi bilan birga mazmunni buzmagan holda qofiyalarning yangilanishiga ham guvoh bo'lamic. Natijada baytlardagi she'riy undoshlik va badiiy nutqning ta'sir kuchi kuchayganligi ayon bo'ldi. Bu versiyada bitta mustazodga joy berilgan.

Yoqub nabi mendan sango bir turfa xabar bor,

Jononing emasmu?

Otiki Yusuf, jumla-jahon anga xaridor,

Ul jononing emasmu?

Yuz nola bila noma yozib sizga yubordi,

Ko'rgan sitaminmdin.

Arz ayladi, yodaylasin, ul pari ko'han zot,

Darmoning emasmu? ("Oshiqnoma" 6-kitob, 55-bet)

Doston tuzilmasidagi g'azallarning aksariyati Aruzning Ramal bahrida yozilgan.

Tuz yegan joyimga qandoq ikkilik aylay Xudo

Bu gunohdin o'zing asra, qilma iymondin judo. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 44-bet)

G'azalning she'riy usulda yozilishi uning ohangdorligi va musiqiyligini belgilab bergen, bu holat g'azallarga o'ziga xos joziba va nola berishda asosiy omil bo'lib xizmat qilgan. Aruzning

hazaj bahrida quyidagi g'azal yaratilgan bo'lib, mafoilun ruknining to'rt marta takrorlanishiga asoslangan.

Birodarlar ajal domi ayirdi shohsuvorimni,

Falak jabri yana buzdi, buzilgan ro'zig'orimni. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 65-bet)

Doston tarkibidagi murabbalarining tuzilishi asosan, 8,9,11,15 bo'g'indan iborat bo'lib, xususan 8 bo'g'inli misralarda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar, izchillik, o'ynoqilikni kuzatamiz.

Haq sanosi tilindadur,

Zar kamari belindadur,

Ishq otashi dilindadur,

Shu yigit Yusufga mangzar ("Oshiqnoma", 6-kitob, 39-bet)

Bunday misralarning aksariyati qofiya va radif yordamida yaratilganligi sababli ularda voqealarni bayon qilish motivlari aniq ifodalangan. Ya'ni, qahramon ichki kechinmalarini aniq yetkaza olish, ifodalash imkonini yaratibgina qolmay, she'rlarning kuyga solingan ifodalari, qahramon holatiga xos bo'lgan nolalarini ham qo'sha olgan.

Yurak bag'rim kabob bo'ldi,

Holim endi xarob bo'ldi,

Ichganlarim zardob bo'ldi,

Bu ishingga pushaymonman. ("Oshiqnoma", 6-kitob, 53-bet)

Dostonning nasriy qismi ham badiiy nutqqa xos bo'lib, barcha talablarga mos ravishda yaratilgan. "Yusuf va Zulayho" dostoni qo'lyozmalar orqali tarqalganligini inobatga olsak, matn tarkibida kitobiy uslubning ustuvorligi yaqqol ko'rinish turadi, ammo, matn tarkibidagi og'zaki badiiy nutqqa xos bo'lgan individual iboralar beixtiyor e'tiborni tortadi. Jumlaarning turli xil burilishlari, ayniqsa xalq og'zaki ijodi ruhida qofiyalangan misralar dostonning badiiy tiliga o'zgacha joziba bag'ishlagan: "Bir vaqt Zulayho kirkin **qizi** bilan, gulgun **yuzi** bilan, bir-birining **izi** bilan, qancha jodu **ko'zi** bilan, shirin-shirin **so'zi** bilan bozorga kirib keta berdi. Zulayhoning o'ng yog'ida qirq bitta, chap yog'ida qirq bitta, jami sakson ikkita kokili bor. Bir yog'ini **tilla** suvga, bir yog'ini **simin** suvga botirgan, tarab-tarab tong eliga **qotirgan**. Ko'zlari **jovdirab**, zulflari **shovdirab**, zulfining jilosi yuziga **urib**, yuzining jilosi zulfiga **urib**, zavq-u shavqqa **to'lib**, yashin tushganday **bo'lib**, qumri-yu to'rg'aylarning jamoliga oshuftai shaydo **bo'lib**, u bilan birga uchib borayotir. Olomon bir Zulayhoning chehrasiga boqib orom olsa, bir Yusufning chehrasiga boqib orom olayotir. Go'yo bir quyosh uchta bo'lib nur taratayotgandek Misr bozori nurga to'ldi ("Oshiqnoma" 6-kitob, 38-bet)

Natijalar. Doston matnidagi bu ta'riflar o'z vaqtida baxshilar repertuarida bo'lganligining o'ziga xos in'ikosi sifatida qabul qilinishi lozim. Asar tarkibida xalq maqollarining qo'llanilganligi fikrimizni yana bir marotaba dalillaydi. Dostonda: "Tuz yegan joyingga xiyonat qilma", "Bug'i chiqib turgan oshni tashlab ketma", "Kishining qo'li bilan o't esharma", "Omonatga xiyonat qilma"... kabi maqollarni tez-tez uchratasiz. Bundan tashqari, nasrdan she'riyatga o'tish jarayonida baxshilarga xos bo'lgan so'zlashuv uslubi mavjud. **Ko'raylik ne dedi:** "Zulayho ayollar ahvoliga kulib, bir abyot aytdi, **qani eshitaylik**, ne dedi".

Doston lug'atida Xorazmnинг о'г'уз shevasiga xos bo'lgan ko'plab so'zlar ham mavjud: "xostor", "al", "salgin", "og'a" va boshqalar. O'z navbatida, forscha va arabcha "mastona", "so'zona", "istig'no", "xurshid", "tashdid", "g'amza", "zabun" kabi so'zlarni, "chehrai ol", "Nuri diyda", "Sarvari olam" kabi izofali birikmalarni ham uchratamiz.

Xulosa. "Yusuf va Zulayho" dostoni quyidagi xulosalarni chiqarishimizga imkon beradi:

1. Dostonning xalq talqini sifatida tarqalgan qo'lyozma nuxalarining paydo bo'lishiga, eng avvalo, Nurmuhammad Andalibning "Yusuf va Zulayho" asarining ta'siri kuchli bo'lgan.

2. XIX asrda doston matnlarining yozma nussalarining paydo bo'lishi uning lug'aviy tarkibiga arab va fors tillariga oid qator so'zlarning kirib kelishiga xizmat qilgan.

3. Dostondagi voqeа-hodisalarни tasvirlashda mubolag'ali mifologik epizodlardan foydalanish, asarning paydo bo'lishida mif va rivoyatlarning muhim rol o'ynaganligini tasdiqlaydi.

4. Dostonning qissaxon va baxshilar repertuariga o'tishi xalq iboralarini asarning badiiy tiliga kirib kelishiga asos bo'lgan.

5. Asarning yig'ilgan variantida an'anaviy syujet yaxlit kompozitsiyaga ega bo'lishiga, natijada dostonning mukammal varianti paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Короглы Х.Г Взаимосвязи эпоса народов средней Азии, Ирана и Азербайджана. –М.: Наука, 1983. –С.336.
2. Рабғузий Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий, I китоб. –Т.: "Ёзувчи", 1990. –Б.240.
3. Сафарова Ҳилола. Ҳазрати Юсуф-гўзаллик тимсоли. –Т.: Ислом университети нашриёти, 2003. –Б.120.
4. Davronbekovna, N. B. (2023). Artical Interpretations If the Story" Yusuf and Zulaiho" in the Repertory of Khorezm Khalfa. *International Journal on Integrated Education*, 4(2), 233-240.
5. Бабаджанова, Н. Д. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ЭПИЧЕСКОЙ РАССКАЗЫ" ЮСУФ И ЗУЛЕЙХА" НА ТУРЕЦКОЙ НАРОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 3(3).
6. Nazokat, B. (2024). A LOOK AT NURMUHAMMAD ANDALIB'S CREATION.
7. Дурбек. "Юсуф ва Зулайхо". –Т.: "Адабиёт ва санъат", 1959. –Б.216.
8. Дурбек. "Юсуф и Зулейха". –М.: "Худож. Литература", 1987. (С.Саверцев таржимаси)
9. Ўзбек адабиёти тарихи, 3-китоб. –Т.: "Фан", 1978. –Б.351.
10. Карриев Б.А. Эпос и дестаны (к вопросу об их взаимосвязи). //Известия АН Туркменистана. Серия общественных наук. №6. 1978. –с. 47 (45-52) –С.271.
11. Рўзимбоев С.Р. Сайланма. –Урганч, "Хоразм", 2012. –Б.155.
12. Дурбек. "Юсуф ва Зулайхо". –Б.216.
13. Қаранг: "Юсуф вазЗулайхо" (О. Менглибоев варианти) –Урганч, "Хоразм", 2011. –Б.47; "Юсуф ва Зулайхо" (Ниёзжон Мусаева варианти) //Ошиқнома 5-китоб. –Урганч, "Хоразм", 2011. –Б.141-184; "Юсуф ва Зулайхо" (йифма вариант) // Ошиқнома, 6-китоб, –Урганч, "Хоразм", 2013. –Б.20-78.
14. Бабаджанова, Н. . (2022). ДУРБЕКНИНГ «ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО» АСАРИНИ КИМ ЁЗГАН?. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 1(19), 8–11. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/view/2197>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

Nº 2 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb
muammolari” elektron jurnali 2020-yil
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan
davlat ro’yxatiga olingan.**

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,
70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com
Bog’lanish uchun telefon:
(99) 602-09-84 (telegram).